

NODAVLAT YOSHLAR TASHKILOTLARINING YOSHLAR HAYOTIDAGI O'RNI VA ROLI

Saydqulova Sevara Ilhomjonovna

HMAL tarix fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10102204>

ANNOTATSIYA. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda nodavlat-notijorat tashkilotlarning tashkil etilishidagi huquqiy jihatdan mustahkamlanishi va iqtidorli yoshlarni qidirib topish hamda qo'llab-quvvatlash ularning hayotidagi o'rni va ahamiyati yoritildi.

KALIT SO'ZLAR: Yoshlarga oid davlat siyosati, nodavlat-notijorat tashkilot, Kamolot jamg'armasi, Kamolot YoIH, Yoshlar ittifoqi, Yoshlar kuni.

O'zbekistonni oldida turgan dolzarb masalalardan biri yoshlarning ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirish, ularning mamlakatdagi fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Shuni qayd etish kerakki, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida¹gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1991 yilda qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunning yangi tahrirda, 2016 yil 14 sentyabr kuni "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 19,20,21, moddalarida yoshlarga oid davlat siyosatining ro'yobga chiqarishda nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, hamda yoshlar tashkilotlarining ishtiroki alohida belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatni amalga oshirishning yangi bosqichini boshlangani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 14 apreldagi PF-1425-sonli "O'zbekiston Respublikasi yoshlarning "Kamolot jamg'armasi to'g'risida"gi farmoni qabul qilinishi bilan izohlash mumkin.

Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 31 maydagi 207-sonli "O'zbekiston Respublikasi yoshlarning Kamolot jamg'armasi qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi, hamda "O'zbekiston Respublikasi yoshlarning Kamolot jamg'armasining mukofotini ta'sis etish to'g'risida"¹gi qarorini qabul qilinishi jamg'arma mavqeyini moddiy va ma'naviy mavqeyini oshirdi

2001 yil yanvari oyida Respublikamiz birinchi Prezidenti bir guruh faol yoshlar bilan uchrashdi. Uchrashuvda O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy jihatdan muhofaza etish, ularning bilim olish, mehnat qilish, siyosiy va bosh konstitutsiyaviy huquqlarini to'la amalga oshira olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish oshlarda umuminsoniy qadriyatlar, milliy axloq, odob, demokratik yo'nalishlarni takomillashtirish asosida barkamol ma'naviy xislatlar, yurtga muhabbat, Vatanga sadoqat, millatlararo do'stlik rishtalarini mustahkamlash uchun zarur muhit va shart-sharoitning yaratilishiga ko'maklashish, yoshlar muomalarini hal etish ularni jamiyatdagi faolligini oshirish va boshqa masalarga doir masalarni ilgari surdi. Bu uchrashuv yoshlar siyosatidagi yangi davrni boshlanishiga turtki bo'ldi. 2001 yil 25 aprelda O'zbekiston "Komolot" yoshlar ijtimoiy harakati ta'sis quriltoyida O'zbekiston "Komolot" ijtimoiy harakati tashkil etildi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 31 maydagi 207-sonli "O'zbekiston Respublikasi yoshlarning Kamolot jamg'armasi qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qarori. www.lex.uz

Xalqimizning asriy orzu-umidlari ro'yobga chiqayotgan bugungi kunda o'gil-qizlarimizni o'z saflarida birlashtiradigan, eski zamon asoratlardan butunlay voz kechgan, o'z taqdirini el-yurt taqdiri bilan uzviy bog'lagan, vatanning sha'ni, or-nomusi uchun kurashga otlangan yosh avlodni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan yoshlar tashkiloti tuzishni hayotni o'zi taqozo qilmoqda. O'ylaymanki, sizlarning tashabbusingiz bilan tashkil etilayotgan "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati ana shunday safarbar kuchga aylana oladi.²

Davlat tomonidan O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatini rivojlantirish va harakatni har jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Harakat 2001-2008 yillar davomida Respublika miqyosidagi yirik yoshlar tashkiloti sifatida shakllanib, o'zining atrofida millionlab sog'lom fikrli yoshlarni birlashtirdi va ularning hayotida muhim ahamiyat kasb etdi.

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog'liq bir qator yangi va muhim vazifalarni belgilab berdi.

"Kamolot" YoIH faoliyatiga tanqidiy baho bergan holda, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarga shart-sharoitlar yaratish, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyun kuni bo'lib o'tgan IV qurultoyidagi qaroriga muvofiq, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenting Farmoniga ittifoqning ustuvor yo'nalishlari belgilab qo'yildi.

Xususan, uyushmagan yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira, milliy g'urur va o'zlikni anglash, ro'y berayotgan voqealarga daxldorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirishni o'z oldiga madsad qilib qo'ygan yoshlar tashkiloti O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgan kun 30-iyun sanasi mamlakatimizda "Yoshlar kuni", deb e'lon qilindi.³ Ushbu sana mamlakatimiz yoshlarini birlashishga undaydigan kun bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shuningdek, yoshlar nodavlat notijorat tashkilotlardan tashqari bir qator yurik nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda bir qator chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishda ishtirok etib kelmoqda. Xususan, "Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish instituti", "Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi", "O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiya Kengashi", "O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati", "O'zbekiston Badiiy akademiyasi", "Mahalla jamoat fondi" hamda Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari" kabi nodavlat tashkilotlarning o'rni ahamiyatlidir.

Yoshlarni yurt koriga yaraydigan, qalbida vatan ravnaqi xissi bilan u, iqtidorli, ijodkor yoshlarni birlashtirish, uyushmagan yoshlar bilan ishlash maqsadida O'zbekiston Yoshlar ittifoqi negizida "Yoshlarga ijtimoiy- psixologik xizmat ko'rsatish markazi", "O'zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash markazi", "Ijtimoiy-huquqiy media", "Respublika yosh olimlar Kengashi", "Loyihalar boshqaruvi markazi", "Yosh huquqshunoslar Kengashi", "Yoshlar ijod saroyi", "Imkoniyati cheklangan yoshlar va bolalar markazi", "Respublika yosh

² I.Karimov. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T: O'zbekiston 2001. 166 b

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyundagi PF-5106-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz

ijodkorlar kengashi”, “O‘zbekiston yosh fermerlari Kengashi” , “Respublika yoshlar markazi” , “Yosh kinoijodkorlar kengashi”, “O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi”, “Yosh dizaynerlar Kengashi”, “Yangi Avlod Forumi” bolalar ijodiyoti markazi , “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 tashabbus loyiha ofisi”, “O‘zbekiston tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalarining assotsiatsiyasi”, “O‘zbekiston volontyorlari assotsiatsiyasi” O‘zbekiston Quvnoqlar va zukkolar assotsiatsiyasi kabi bir qancha nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritadi.

Hududlarda faoliyat yuritayotgan yoshlar tashkilotlaridan tashqari “Yoshlar muommolarni o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti”, “Yoshlar media markazi”, “Yoshlar ijodiy soroyi”, “Yoshlar teleladiokomponiyasi”, “Yoshlar ovozi” , “Молодёжь Узбекистана” gazetasi, “Yosh kuch” jurnali, “Yoshlar nashiriyot uyi” kabi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi

Bugungi kunda oshar ittifoqi tizimi Markaziy kengash, 14 ta hududiy, 193 ta shahar va tuman kengashlari faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, Ittifoq o‘zaro hamkorlik asosida vazirlik, idora va tashkilotlar, xo‘jalik birlashmalari hamda siyosiy partiyalarining respublika boshqaruv organlari hamda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, o‘rta-maxsus kasb-hunar ta‘lim muassasalari, oliy ta‘lim muassasalari va harbiy qismlarda boshlang‘ich tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishdagi davlat organlari tuzilmasi nodavlat tashkilotlar tarmog‘i hamda ularning o‘zaro hamkorligi masalalari O‘zbekiston Respublikasining qonun va qonun osti hujjatlari, shuningdek tegishli tashkilot, idoralar va muassasalarning ichki me‘yoriy-hujjatlarida o‘z aksini topadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurutuvchi siyosiy partiyalarning yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishdagi ishtirokini “Yoshlar qanoti” faoliyati misolida ko‘rish mumkin.

References:

1. Sh. Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asari T: O‘zbekiston 2022.
2. I.Karimov. “Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz” T: O‘zbekiston 2001.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 31 maydagi 207-sonli “O‘zbekiston Respublikasi yoshlarning Kamolot jamg‘armasi qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyundagi PF-5106-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni.